Kurashchilarda muvozanat (balance) va ko'tarib uloqtirish texnikasi o'rtasidagi bog'liqlik	590
<i>Shermatov Gulom Qaxxorovich</i>	
O'qituvchi shaxsining o'zini o'zi rivojlantirishida akmeologik pozitsiyaning o'rni.....	594
<i>Xaitov Abdusolim Abdulkim o'g'li</i>	
Lego-qurilish, konstruksiyalash, robototexnika – STEAM ta'lim moduli sifatida	596
<i>Xamroyeva Sitara Samadovna</i>	



Raqamli jamiyatda o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy axborot olish madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari	599
<i>Xayrullayev Axror Aktam o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ta'limiy o'yinlarni loyihalash va joriy etish	602
<i>Xikmatova Moxinur Amir qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar orqali kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish zamonaviy yechimlarini ishlab chiqish usullari	605
<i>Xolmo'minova Mohichehra Bahrom qizi</i>	
O'quvchilarning biologiyaga qiziqishini oshirishda innovatsion ta'lim metodlari	609
<i>Xudayberganova Madina Saotboy qizi, Abdiqodirov Murodxo'ja Alisher o'g'li, Nishanbayeva Arayim User qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida shug'ullanuvchi voleybolchi qizlarning musobaqa oldi jismoniy va psixologik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi	612
<i>Xudoynazarova Sayyora Ravshanovna</i>	
Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar asosida bolalarni axloqiy tarbiyalash texnologiyalari	618
<i>Yo'ldoshboyeva Gulmira Xushnudovna</i>	
Umumta'lim maktab seksiyasi uzunlikka sakrovchilarining jismoniy rivojlanganlik darajasi	621
<i>Zokir Akramov O'tkir o'g'li</i>	
Perseptiv qobiliyat: o'qituvchining o'quvchini tushunish sa'nati	625
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdaliyevich</i>	
Ожидания и потребности родителей как основа продвижения услуг дошкольного образовательного учреждения в Республике Узбекистан	628
<i>Ким Ирина Николаевна, Аббосхонова Зухра Баходир кизи</i>	
Экспериментальная деятельность – метод развития здоровьесберегающей компетентности у детей старшего дошкольного возраста	631
<i>Ким Ирина Николаевна, Алиходжаева Райхон Шавкат кизи</i>	
Подготовка детей-билингвов к школьному обучению: интеграция цифровых и традиционных педагогических методов	634
<i>Ким Ирина Николаевна, Умарова Шоиста Рустамовна</i>	



KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING DIDAKTIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH



Axmedova Laylo Baxtiyor qizi

“Profi University” xususiy oliy ta’lim muassasasi

“Boshlang’ich ta’lim” kafedrası dotsenti (PhD)

ORCID: 0009-0000-1899-331X

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining didaktik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy e'tibori bo'lajak o'qituvchilarda didaktik kompetensiyani shakllantirishda innovatsion pedagogik strategiyalarning o'rni va ahamiyatini aniqlashga qaratilgan. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, an'anaviy bilimga yo'naltirilgan yondashuv o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan amaliy, refleksiv va ijodiy ko'nikmalarni yetarli darajada rivojlantirmaydi. Shu bois maqolada ta'lim jarayonini loyihalash, didaktik rejalashtirish, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish hamda kasbiy mas'uliyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi kompetensiyaviy yondashuvning ilmiy asoslari yoritib beriladi. Tadqiqot davomida nazariy tahlil, qiyosiy taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining didaktik kompetensiyasini shakllantirishda ta'lim mazmuni, metodlari va baholash tizimini uyg'unlashtirish muhimligini ko'rsatdi. Tadqiqot xulosalari oliy pedagogik ta'lim tizimida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: didaktik kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik strategiyalar, oliy ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, ta'lim jarayoni.

Abstract: The article examines the issues of improving the didactic training of future primary school teachers based on a competency-based approach in higher education. The study focuses on substantiating the role of innovative pedagogical strategies in the formation of didactic competence among prospective teachers. An analysis of scientific literature indicates that traditional knowledge-oriented approaches do not sufficiently ensure the development of practical, reflective, and professionally significant skills required for effective teaching practice. Therefore, the article emphasizes the potential of the competency-based approach aimed at integrating theoretical knowledge, practical skills, and professional values in teacher education. The research methodology includes theoretical analysis, comparative analysis, and generalization. The findings demonstrate the importance of aligning educational content, teaching methods, and assessment systems to foster the didactic competence of future primary school teachers. The conclusions of the study can be applied to enhance the quality of teacher education programs and improve professional readiness in accordance with contemporary educational requirements.

Key words: didactic competence, competency-based approach, future teacher, pedagogical strategies, higher education, professional training, educational process.



Аннотация: В статье рассматриваются вопросы совершенствования дидактической подготовки будущих учителей начальных классов на основе компетентного подхода в системе высшего образования. Основное внимание уделяется обоснованию роли инновационных педагогических стратегий в формировании дидактической компетентности будущих педагогов. Анализ научных источников показывает, что традиционные подходы, ориентированные преимущественно на передачу теоретических знаний, не обеспечивают достаточного уровня сформированности практических, рефлексивных и профессионально значимых умений будущих учителей. В связи с этим в статье раскрываются возможности компетентного подхода, направленного на интеграцию знаний, практических навыков и ценностных установок в процессе профессиональной подготовки педагогов. В исследовании использованы методы теоретического анализа, сравнительного сопоставления и обобщения. Полученные результаты свидетельствуют о необходимости согласования содержания обучения, педагогических методов и системы оценки результатов для формирования дидактической компетентности будущих учителей начальных классов. Сделанные выводы могут быть использованы для повышения качества подготовки педагогических кадров в условиях обновления образовательных требований.

Ключевые слова: дидактическая компетентность, компетентностный подход, будущий учитель, педагогические стратегии, высшее образование, профессиональная подготовка, образовательный процесс.

KIRISH

Bugungi ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim sifati jamiyatning intellektual va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy faoliyati nafaqat o'quvchilarga bilim berish, balki ularning bilish faolligi, mustaqil fikrlashi va shaxsiy rivojlanishini ta'minlash bilan ham bevosita bog'liqdir ^[4]. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining didaktik tayyorgarligini takomillashtirish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, faqat bilimga yo'naltirilgan tayyorgarlik modeli bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan murakkab pedagogik vaziyatlarni samarali hal etish uchun yetarli emas ^[11].

Pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limni tashkil etish o'qituvchining nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, mustaqil qaror qabul qilish hamda ijodiy yondashuvni rivojlantirish imkonini beradi ^[9]. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisining didaktik tayyorgarligi o'quv jarayonini samarali rejalashtirish, o'qitish metodlari va vositalarini maqsadga muvofiq tanlash, shuningdek, ta'lim natijadorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ^[15]. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak o'qituvchilarining didaktik tayyorgarligini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur tadqiqotning ob'ekti oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayoni hisoblanadi ^[2].

Tadqiqotning predmeti esa kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining didaktik tayyorgarligini takomillashtirish strategiyalaridir.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining didaktik tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik strategiyalarni nazariy va amaliy jihatdan asoslashdan iborat ^[8].

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining didaktik tayyorgarligi mazmuni va tarkibini aniqlash;
- kompetensiyaviy yondashuvning didaktik tayyorgarlikni rivojlantirishdagi ahamiyatini tahlil qilish;
- didaktik tayyorgarlikni takomillashtirishga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish;
- tajriba-sinov ishlari orqali ushbu strategiyalarning samaradorligini aniqlash hamda ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ^[17].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda pedagog kadrlar tayyorlash masalasi ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xorijiy tadqiqotchilar A. Hargreaves (1994, 2003), D. Gatlin (2009), I. Gatt (2009), D. Loewenberg Ball va F. M. Forzani (2009), L. Darling-Hammond (2010), G. Sykes va boshqalar (2010), T. Kleickmann va hammualliflar (2012) o'z tadqiqotlarida o'qituvchilarni tayyorlash sifati ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanini ta'kidlaydilar. Ushbu tadqiqotlarda o'qituvchining fan bo'yicha bilimlari bilan bir qatorda pedagogik mazmuniy bilimlarning (pedagogical content knowledge) ahamiyati alohida ko'rsatib o'tiladi.

Bilimga asoslangan iqtisodiyot sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan vazifalar murakkablashib borayotgani D. Gatlin (2009) tomonidan asoslab berilgan. Muallifning fikricha, o'qituvchi kasbiy faoliyatida moslashuv-



chan, rivojlanuvchi va javobgarlikka asoslangan yondashuvni qo'llay olishi lozim. Shu bilan birga, Jones va hammualliflar (2002) integratsiyalashgan ta'lim tajribalariga asoslangan kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni real vaziyatlarda samarali qo'llash imkonini yaratishini ta'kidlaydilar. Ushbu yondashuv doirasida shakllanadigan tayanch kompetensiyalar, asosiy ko'nikmalar va muhim malakalar S. Kerka (1998) tomonidan ta'lim natijalarining uzviy qismi sifatida talqin etilgan.

Kompetensiyaviy ta'lim konsepsiyasining shakllanishi XX asrning 1970-yillarida AQSh ta'lim tizimida kuza-tilgan bo'lib, K. S. Weddel (2006) ushbu yondashuvning asosiy belgilari va nazariy jihatlarini keng yoritib bergan. Muallif kompetensiyaviy ta'limni bilim, ko'nikma, munosabat va xulq-atvorning yaxlit tizimi sifatida talqin etadi. Shuningdek, S. Kerka (1998) kompetensiyaviy yondashuvning bixevioristik hamda integratsiyalashgan model-lari mavjudligini ko'rsatib, ikkinchi model reflektiv va rivojlanuvchi ta'lim jarayoniga mos kelishini asoslaydi.

H. Hill va P. Houghton (2001) kompetensiyaviy ta'limni mazmunga yo'naltirilgan dasturlarga qarama-qarshi qo'yib, bunda o'qitish jarayoni natijaga, ya'ni o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni real faoliyatda qo'llashga yo'naltirilishini ta'kidlaydilar. C. Sturgis va S. Patrick (2010) esa kompetensiyaviy yondashuv doirasida vaqtga bog'langan o'qitish tizimidan voz kechib, modul asosida o'zlashtirish hamda yuqori sifat standartlariga erishish g'oyasini ilgari suradilar. Mazkur yondashuvda metakognitiv o'zini anglash va tajribaga asoslangan ta'lim muhim o'rin egallaydi.

Shu bilan birga, McEvoy va hammualliflar (2005) bilimga asoslangan pedagogikadan ko'nikmaga yo'nal-tirilgan pedagogikaga o'tish jarayonida bilim, munosabat va xulq-atvorni emotsional hamda reflektiv jarayonlar bilan uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydilar. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida faqat bilimlar bilan cheklanmasdan, balki didaktik tayyorgarlikning amaliy va shaxsiy jihatlariga ham e'tibor qaratishni talab etadi.

Yuqorida tahlil qilingan adabiyotlar kompetensiyaviy yondashuvning umumiy nazariy asoslarini yoritib bergan bo'lsa-da, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining didaktik tayyorgarligini takomillashtirish strate-giyalari masalasi yetarli darajada tizimli o'rganilmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldir-ishga qaratilgan bo'lib, kompetensiyaviy yondashuv asosida didaktik tayyorgarlikni rivojlantirishning mazmuni, mexanizmlari va samarali strategiyalarini aniqlash bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot oliy ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik strategiyalar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining didaktik kompetensiyalarini shakllantirish masalasini yoritishga qaratilgan bo'lib, unda nazariy va tahliliy metodlar majmuasidan foydalanildi [20]. Tadqiqot metodologiyasi pedagogika, didaktika hamda kompetensiyaviy yondashuvga oid ixtisoslashgan ilmiy manbalarni chuqur o'rganishga asoslandi.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy-taqqoslash usuli muhim metod sifatida qo'llanildi. Ushbu usul yordamida xorijiy va mahalliy olimlarning bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash, didaktik kompetensiyalarni rivojlantirish hamda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish bo'yicha qarashlari o'zaro taqqoslandi [5]. Natijada turli ilmiy yonda-shuvlarning umumiy va farqli jihatlarini aniqlanib, didaktik tayyorgarlikni takomillashtirish strategiyalarini belgilash imkoniyati yaratildi [10]. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining didaktik kompetensiyasi tarkibi va uni baho-lash mezonlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval: Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining didaktik kompetensiyasini tavsiflovchi kategoriyalar tizimi

O'lcham	Kategoriyalar	Ko'rsatkichlar
Didaktik qarashlar tizimi	Bilimlar	Ta'lim muhiti haqida tushuncha; Ijtimoiy-ta'limiy muhit; Umumdidaktik strategiyalar; Faol ta'limga yo'naltirilganlik
	Amaliy ko'nikmalar	Nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash; Didaktik faoliyatni kengaytirish
	Qadriyatlar va munosabatlar	Mustaqillik; Ijtimoiy-pedagogik xulq-atvor; Ta'lim jarayonida mas'uliyat; Sog'lom pedagogik odatlar

*Manba: xorijiy tadqiqotlar asosida muallif tomonidan moslashtirilgan.

Shuningdek, tadqiqotda gipotetik-deduktiv metod qo'llanildi. Mazkur metod orqali mavjud ilmiy qarashlar va nazariy xulosalar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining didaktik kompetensiyalarini shakllan-tirishga doir ilmiy taxminlar ilgari surildi hamda ularning mantiqiy asoslanganligi tahlil qilindi [16]. Ushbu metod tadqiqotning konseptual asoslarini aniqlashtirish va umumlashtirilgan xulosalarga kelishda muhim ahamiyat kasb etdi.



Tizimli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilar tayyorgarligi yaxlit pedagogik jarayon sifatida ko'rib chiqildi [6]. Ushbu yondashuv didaktik kompetensiyalarning motivatsion, faoliyatga oid, shaxsiy va baholovchi komponentlarining o'zaro bog'liqligini aniqlashga xizmat qildi hamda innovatsion pedagogik strategiyalarni kompleks holda tahlil qilish imkonini berdi [13].

Bundan tashqari, tadqiqotda nazariy tahlil va umumlashtirish metodlari qo'llanilib, ilmiy adabiyotlar bilan ishlash jarayonida bibliografik tahlil, ma'lumotlarni tizimlashtirish, taqqoslash, izohlash va umumlashtirish amaliyotlari amalga oshirildi. Ushbu metodlar asosida maqola mavzusiga oid asosiy tushunchalar aniqlanib, didaktik kompetensiyalarni shakllantirishga oid mualliflik yondashuvi ishlab chiqildi [18].

Qo'llanilgan metodlar majmui tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minlab, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining didaktik tayyorgarligini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirishga doir xulosalar chiqarish imkonini berdi [3].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning asosiy bosqichida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining didaktik kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining mazmuni, metodlari va shakllari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani o'rganildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, didaktik kompetensiyaning shakllanishi motivatsion, kognitiv, faoliyatga oid hamda refleksiv-baholovchi komponentlarning o'zaro uyg'un rivoji bilan bevosita bog'liq [12, 14].


Tadqiqot doirasida o'tkazilgan diagnostik tahlillar bo'lajak o'qituvchilarning boshlang'ich holatdagi tayyorgarligi asosan nazariy bilimlar bilan cheklanganini, amaliy va ijodiy faoliyatga tayyorlik darajasi esa yetarli emasligini ko'rsatdi [1]. Ayniqsa, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, o'qitish jarayonida mos metod va strategiyalarni tanlash hamda mustaqil didaktik qarorlar qabul qilishda qiyinchiliklar mavjudligi aniqlandi. Bu holat ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik strategiyalarni tizimli ravishda joriy etish zarurligini ko'rsatadi [19].

Tajriba-sinov ishlari davomida didaktik kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion pedagogik strategiyalar bosqichma-bosqich qo'llanildi. Xususan, muammoli vaziyatlar asosida o'qitish, loyihaviy faoliyat, interfaol va refleksiv mashg'ulotlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning bilish faolligi oshirildi [7]. Ushbu jarayonda olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, talabalar pedagogik faoliyatga nisbatan yanada ongli yondasha boshlagan, o'z kasbiy rolini anglash darajasi hamda o'quv jarayonini loyihalash ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlangan.

2-jadval: Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni amaliy tayyorlash shartlari

No	Mazmuni
1	Izchillik va uzviylik tamoyillariga rioya etilishi
2	Pedagogik amaliyotni muayyan tizimli bog'liqlikda tashkil etish
3	Pedagogik amaliyot turlarini va o'quv rejasining tanlov qismiga oid mashg'ulotlarni aniq rejalashtirish

*Manba: tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



1-rasm: Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining didaktik kompetensiyasi tarkibi va uning asosiy komponentlari



Tadqiqot natijalari 2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Mazkur jadvalda innovatsion pedagogik texnologiyalarning didaktik salohiyati aks ettirilgan bo'lib, ular bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyati hamda pedagogik faoliyatga moslashuvchanligini rivojlantirishda muhim omil ekanligi aniqlandi. Jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, o'yin texnologiyalari, muammoli ta'lim, vaziyatli o'qitish hamda ijodiy topshiriqlar didaktik kompetensiyalarning shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, tahlil jarayonida mavjud muammolar ham aniqlandi. Jumladan, ayrim hollarda innovatsion strategiyalarning fragmentar tarzda qo'llanilishi, o'qitish jarayonida reflektiv tahlilning yetarli darajada tashkil etilmasligi hamda nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikning to'liq ta'minlanmagani kuzatildi. Ushbu holatlar didaktik kompetensiyalarni barqaror rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar sifatida baholandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining didaktik tayyorgarligini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish ularning kasbiy shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlil jarayonida aniqlanishicha, an'anaviy, asosan nazariy bilimlarga yo'naltirilgan tayyorgarlik modeli bo'lajak o'qituvchilarning real pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, o'qitish jarayonini loyihalash hamda samarali metodlarni tanlash qobiliyatini to'liq shakllantira olmaydi. Kompetensiyaviy yondashuv esa bilimlar, amaliy ko'nikmalar hamda qadriyat va munosabatlarning o'zaro uyg'un rivojlanishini ta'minlab, didaktik kompetensiyaning yaxlit va barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot natijalari asosida oliy ta'lim amaliyotida mavjud bir qator muammolar aniqlandi. Jumladan, kompetensiyaviy yondashuvning ta'lim jarayoniga yetarli darajada tizimli joriy etilmasligi, innovatsion pedagogik strategiyalarning epizodik va izchilligi ta'minlanmagan holda qo'llanilishi, shuningdek, nazariya va pedagogik amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikning sustligi bo'lajak o'qituvchilarning didaktik tayyorgarligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, baholash jarayonida ko'proq reproduktiv bilimlarga e'tibor qaratilib, reflektiv, ijodiy hamda faoliyatga yo'naltirilgan ko'rsatkichlarning yetarlicha hisobga olinmasligi aniqlangan.

Olingan xulosalardan kelib chiqib, quyidagi taklif va tavsiyalarni berish mumkin.

- *Birinchidan*, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni o'quv rejalari, fan dasturlari va mashg'ulotlar mazmuniga izchil integratsiya qilish zarur.
- *Ikkinchidan*, didaktik kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan innovatsion pedagogik strategiyalarni amaliy mashg'ulotlar, pedagogik amaliyot va mustaqil ta'lim bilan uzviy bog'liq holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir.
- *Uchinchidan*, bo'lajak o'qituvchilarning didaktik tayyorgarligini baholashda ularning nazariy bilimlari bilan bir qatorda amaliy faoliyati, mustaqil fikrlashi, reflektiv tahlil qilish ko'nikmalari hamda kasbiy mas'uliyatini aks ettiruvchi mezonlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining didaktik tayyorgarligini takomillashtirishga, shuningdek, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hargreaves, A. (2003). Teaching in the knowledge society. New York: Teachers College Press.
2. Darling-Hammond, L. (2010). Teacher education and the American future. Journal of Teacher Education, 61(1–2), 35–47.
3. Kleickmann, T., Richter, D., Kunter, M., Elsner, J., Besser, M., Krauss, S., & Baumert, J. (2013). Teachers' content knowledge and pedagogical content knowledge. Journal of Teacher Education, 64(1), 90–106.
4. Kerka, S. (1998). Competency-based education and training. ERIC Digest. Columbus: ERIC Clearinghouse.
5. Hill, J., & Houghton, P. (2001). A reflection on competency-based education. Journal of Further and Higher Education, 25(1), 91–103.
6. McEvoy, G. M., Hayton, J. C., Warnick, A. P., Mumford, T. V., Hanks, S. H., & Blahna, M. J. (2005). A competency-based model for developing human resource professionals. Human Resource Management, 44(4), 383–400.
7. Shulman, L. S. (1987). Knowledge and teaching: Foundations of the new reform. Harvard Educational Review, 57(1), 1–22.
8. Fullan, M. (2014). Teacher development and educational change. London: Routledge.
9. Ertmer, P. A., & Ottenbreit-Leftwich, A. (2010). Teacher technology change. Journal of Research on Technology in Education, 42(3), 255–284.
10. Voogt, J., & Roblin, N. P. (2012). A comparative analysis of international frameworks for 21st century competences. Journal of Curriculum Studies, 44(3), 299–321.



11. OECD. (2019). Future of education and skills 2030. Paris: OECD Publishing.
12. Krumsvik, R. J. (2014). Teacher educators' digital competence. *Scandinavian Journal of Educational Research*, 58(3), 269–280.
13. Shevchenko, S., Moskalyova, L., Kanarova, O., & Poznanska, O. (2019). Professional readiness of future primary school teachers. *Pedagogical Sciences*, 3, 45–53.
14. Sultanbek, A. (2015). Criterion-oriented testing in teacher education. *Education and Assessment Review*, 7(2), 112–120.
15. Sugimura, M., Kitamura, Y., & Kuroda, K. (2018). Education reform and teacher training. *International Journal of Educational Development*, 61, 1–10.
16. Midgley, C., Itten-Gee, C., Powers, J., Murata, A., & Nucci, L. (2018). Teachers' professional learning and student-centered approaches. *Teaching and Teacher Education*, 74, 36–46.
17. Fedorenko, E., Zhuravleva, O., Polyakova, N., & Ivanitska, I. (2018). Competency-based approach in teacher education. *European Journal of Education*, 53(2), 234–246.
18. Buldu, M., & Armagan, F. (2019). Pedagogical problem-solving skills of pre-service teachers. *Teaching Education*, 30(2), 187–203.
19. Awe, J., & Church, R. (2020). Creativity and professional identity in teacher education. *Journal of Creative Education*, 11(5), 879–892.
20. Bogdanova, I. (2017). Modular approach in pedagogical education. *Pedagogical Innovations*, 4, 61–68.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.